

**O'ZBEKISTONDA TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANGANLIK
DARAJASI VA UNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI**

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti aniq
va tabiiy fanlar fakulteti 1-GIQ-22 guruh
talabasi Choriqulova Iroda*

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning transport tizimining rivojlanish darajasi va uning hududiy xususiyatlarini taxlil qiladi. O'zbekistonning transport infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy rivojlanish va xalqaro aloqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli hududlarda turli xususiyatlarga ega. Maqolada transport tarmoqlarining asosiy yo'nalishlari, ularning o'zaro bog'liqligi shuningdek, mamlakatning geografik o'ri, iqlimi va aholining ehtiyojlariga mos holda transport tizimining hududiy farqlari ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется уровень развития транспортной системы Узбекистана и ее территориальные особенности. Транспортная инфраструктура Узбекистана имеет важное значение для экономики страны, социального развития и международных отношений и имеет разные характеристики в разных регионах. В статье рассматриваются основные направления транспортных сетей, их взаимосвязь а также территориальные различия транспортной системы в соответствии с географическим положением страны, климатом и потребностями населения.

Kalit so'zlar: Avtomobil yo'llari, Temir yo'l, O'rta Osiyo, Iqtisodiy ahamiyat, Transport tuguni, Havo transporti.

Kirish

O'zbekistonda transport sohasi 1990 yillarda endi rivojlanish pallasida bo'lgan, O'zbekistonning ilk mustaqillik yillarida bu ko'rsatkichlar saqlanib turdan. 2000-yillardan boshlab havo transportida, transportning boshqa sohalarida tub islohatlar o'tkazila boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi hududida 2005-yilgi malumotlarga muvofiq 82000 km yo'llar mavjud ularning 72 km qismiga yangi tekis asfalt yotqizilgan. Bu yo'llarning asosiy qismi Toshkent shahri tashqarisida va viloyatlarda hisoblanadi. Qamchiq dovoni, avtomobil yo'llari miqiyosida juda katta ahamiyatga ega, chunki u Toshketni [Farg'ona vodiysi](#) bilan bog'laydi. Dovonining balandligi 3000 kmga boradi va unda yengil va og'ir yuk avtomobillari bimalol yura oladi. Toshkent shahrini Qashqadaryo va Surxondaryo bilan bog'lovchi muhim yo'l bo'limlaridan hisoblangan [avtomobil yo'li](#) 2006-yilda ta'mirdan chiqarilgan va yo'lining eniga kengaytirilgan. Toshkent shahri o'rab turadigan Toshkent katta halqa yo'lining uzunligi

70 kmni tashkil etadi va u doimiy tarzda ta'mirlanib turadi. Toshkent va Samarqandni bog'lab turadigan Toshkent-Samarqand katta avtomobil yo'li 4 bo'lakli tekis yo'llardan biri hisoblanadi. Uning uzunligi 300 km ni tashkil etadi.

Asosiy qism

Avtomobil yo'li – avtomobil transporti qatnoviga mo'ljallangan muhandislik inshooti. Avtomobil yo'li ahamiyatiga qarab xalqaro, davlat (respublika) va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarga bo'linadi. Xalqaro Avtomobil yo'li ga mamlakatlarni, yirik sanoat markazlarini bog'lovchi va katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar kiradi. Davlat ahamiyatidagi yo'llarga yirik sanoat markazlari, muhim temir yo'l stansiyalari, pristanlar va boshqa bilan bog'lovchi yo'llar, mahalliy yo'llarga esa viloyat, qishloq, jamoa xo'jaliklari yo'llari kiradi. Avtomobil yo'li muhandislik inshooti sifatida quyidagi elementlardan tashkil topadi: yer poyi ko'tarmasi; yo'l to'shamasi; qatnov qismi; yo'l cheti; sun'iy va chiziqli inshootlar va boshqa jihozlar. 1929-yilda Respublika XKS huzurida yo'llar va avtomobil trans-porti bosh boshqarmasi, 1930-yilda ". 1993-yil fevralda O'zbekiston avtomobil yo'llarini qurish va undan foydalanish davlat-aksiyadorlik konserni ("O'zavtoyo'l") ish boshladi (1969 – 1993-yillarda vazirlik). Konsern tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari boshqarmalari, 154 tuman avtomobil yo'llari boshqarmalari, 512 yo'llarni asrash va ulardan foydalanish bo'limlari, "O'zyo'lloyiha" yo'l va inshootlar qurish, qayta qurish va ta'mirlash loyiha-qidiruv instituti, ko'prik temir-be-ton qurilmalari zavodi va boshqa korxonalar bor. O'zbekiston Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon – O'sh – Ergashtom – Kashqar avtomobil yo'lini ishga tushirishda qatnashmoqda (2000). Respublikaning o'zida Farg'ona vodiysi bilan Toshkent vohasini Qamchiq dovoni (tonnel) orqali bog'laydigan yirik Avtomobil yo'li hamda Qo'ng'iro't – Beynov avtomagistrali qurilishi jadal olib borilmoqda, umumiy uzunligi 1250 km dan ortiq bo'lgan Andijon–Toshkent–Nukus–Qo'ng'iro't avtomagistrali qurilishi loyihalashtirilmoqda (2000). Respublika rivojlangan yo'l xo'jaligi va zamonaviy talablarga javob beradigan xalqaro, respublika, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llariga ega. Mamlakatdagi avto-mobil yo'llarining jami uz. 146,4 ming kmdan ortiq. Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarining uz. 43,4 ming km, jumladan 3237 km xalqaro, 18767 km davlat (respublika), 21459 km mahalliy (viloyat) ahamiyatiga ega bo'lgan yo'l dir. Shuningdek respublika idoralar (korxo-na, jamoa xo'jaliklari, xo'jalik tashkilotlari)ga qarashli yo'llar ham mavjud. O'zbekistonda umumiy foydalanuvdagi jami yo'llarning 95,6% iga qattiq qoplamalar yotqizilgan, jumladan se-ment-beton qoplamali yo'llar 0,8% (336 km), asfalt-beton qoplamali yo'llar 49,6% (21819 km), qora shag'alli va qora qoplamali yo'llar 40,6% (17796 km)ni tashkil etadi (1999). Respublikada 1864 km Avtomobil yo'li 1-toifali yo'lga kiradi

Temir yo'l sohasi

2019-yilgi malumotlarga ko'ra O'zbekistonda jami bo'lim temir yo'llarning umumiy uzunligi 7400 km dan ortiqni tashkil etadi va bu uzunlikdagi temir yo'llarning 1300 kmga yaqin qismi elektrlashtirilgan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ko'p tarmoqli temir yo'l lineasini deyarli barcha tarmoqlari Toshkent shahri bilan bog'langan. O'zbekiston temir yo'l tizimida O'rta Osiyodagi qo'shni davlatlar bilan temir yo'l aloqa yo'nalishlari bog'langan. Jumladan, Qozoqiston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston bilan temir yo'l aloqa linealari mavjud.

O'zbekiston temir-yo'l linealari tarixidagi katta voqealardan biri [Toshkent-Samarqand tezyurar temir yo'li](#) qurilishi va ochilishi bo'lgan. Mazkur tezyurar temir yo'l lineasi 2011-yili foydalanishga topshirilgan. [O'zbekiston temir yo'llari](#) aksiyadorlik kompaniyasi asosiy kompaniya hisoblanadi. Yevropaning ko'pgina shaharlari bilan temir yo'l aloqalari mavjud, masalan, Moskva, Kiyev, Ufa, Chelyabinsk, Penza, San Peterburg. Qozoqistonning Olmota shahri orqali Xitoy Xalq Respublikasiga ham o'tish imkoni mavjud.^[1]

Toshkent shahrida joylashgan Toshkent metrosi O'rta osiyodagi yagona metro hisoblanadi. U jami bo'lib 50 ta bekat mavjud.

Xulosa ;Bugungi kunda transportlar davlat tuzumida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi .Ular O'zbekistonning tashqi va ichki savdo aloqalarni mustahkamlashda ,yuk va yo'lovchilarni tashishda hamda davlat infratuzilmasini yaxshilashda alohida o'rin egallaydi .Xususan bugungi kunda davlat ichkarisida transport turlarining ko'payishi .temiryo'llarning elektrlashtirlashtirilishi aholiga samarali xizmat ko'rsatishni belgilab beradi .

Adabiyotlar

1. [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi](#)
2. [O'zbekiston temir yo'llari](#)
3. [↑ O'zbekiston avtomobil yo'llari](#)
4. [↑ O'zbekiston havo yo'llari](#)

